



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 10 | pp. 297-302 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TO'QIMACHILIK KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH



To'g'onov Ibrohimxo'ja

International School of Finance Technology and Science

Assistant of the Department of Management

E-mail: togonovibrohimxoja8@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada to'qimachilik korxonalari innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari tadqiq etilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsiyalar va ularning to'qimachilik sanoat korxonalarini rivojlantirishdagi o'rni asoslangan.

Kalit so'zlar. Innovatsion, ilmiy-texnika, investitsiya, jarayon, to'qimachilik , ishlab chiqarish, texnologiya, tarmoq, mahsulot.

Kirish.

O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor yo'nalişlaridan biri bo'lgan to'qimachilik sanoati mamlakatimizda iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, to'qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyatni kuchaytirish va samaradorligini oshirish bu sohada raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish, eksport hajmini kengaytirish va ichki bozor ehtiyojlarini qondirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Davlatimiz rahbariyati tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlarda ham to'qimachilik sanoatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Prezidentning 2022 yil 12 maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida klasterlar va kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu sohani zamонавиy bosqichga olib chiqishni nazarda tutdi. Mazkur qarorda to'qimachilik korxonalarida ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ularni innovatsion loyihalarga jalb qilish hamda mahalliy mahsulotlarni jahon bozorida keng namoyon qilish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi "Taraqqiyot strategiyasi - 2030"da ham to'qimachilik sanoatini rivojlantirish va innovatsion imkoniyatlarni kengaytirish asosiy maqsadlardan biri sifatida ko'rsatilgan. Unda sanoatning eksportga yo'naltirilgan sektorlarini rag'batlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va innovatsiyalarni tezkor tatbiq etish bo'yicha vazifalar belgilangan.

Bugungi kunda globallashuv va texnologik inqiloblar sharoitida to'qimachilik korxonalari faoliyatida innovatsiyalarga asoslangan yondashuvlar faqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan cheklanmasdan, balki ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, ushbu maqolada to'qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirishning

ilmiy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolar hamda ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "O'zbekistonni innovatsion taraqqiyotga olib chiqish kerak. 2030 yilgacha Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha dunyoning 50 ta eng kuchli mamlakati qatoridan joy olishni maqsad qilganmiz. Bu ilm-fanimiz uchun ham, davlat organlari, tadbirkorlar, qo'yingki, butun jamiyat uchun ham mutlaqo yangi platformaga o'tishni anglatadi"[1].

O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tishi uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlari, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu -mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Respublikada investitsiyaga asoslangan milliy innovatsion tizimni yaratish, birinchidan, iqtisodiy taraqqiyotning asosi, ikkinchidan esa, milliy iqtisodiyotni jahon bozorida raqobatdoshligini oshirishning birdan bir yo'li ilmiy-texnika sohasini rivojlantirish hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

To'qimachilik sanoatida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish borasida ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlarni o'rghanish ushbu sohadagi muammolar va yechimlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan innovatsiyalar, klasterlar va sanoatni rivojlantirish bo'yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ular quyidagi asosiy yo'nalishlarda ahamiyatga ega:

1. Xorijiy olimlarning tadqiqotlari:

- B.Tviss innovatsion jarayonlarning ilmiy asoslarini, ularning ishlab chiqarish jarayoniga ta'sirini tadqiq etgan.
- YE. Dixtl va X. Xershgen marketing strategiyalari va innovatsiyalarning iste'molchi bozoriga ta'sirini o'rgangan.
- V.Kingston va V.A.Borodin innovatsion menejment jarayonini va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini chuqur tadqiq qilgan.

- V.G.Medinskiy innovatsiyalarni boshqarishda innovatsion siyosatning ahamiyatini qayd etgan.

- L.G.Sharshukova va R.G.Molodsova ishlab chiqarishdagi innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ularning moliyaviy samaradorligini baholash usullarini ko'rib chiqqan.

2. O'zbekiston olimlari tadqiqotlari:

- A.V.Vaxabov mamlakat iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini rivojlantirish va innovatsiyalarni moliyalashtirish jarayonlariga e'tibor qaratgan.
- SH.X.Xajibakiyev va S.S.G'ulomov innovatsion jarayonlarning strategik boshqaruvdagi ahamiyatini tahlil qilgan.
- M.H.Saidov to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning roliga e'tibor qaratgan.

- B.A.Abdullayev va K.K.Ismoilov mahalliy sharoitlarda innovatsion boshqaruv modellarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan.

Tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy va mahalliy olimlarning innovatsiyalarga oid konsepsiyalari to'qimachilik sanoatida raqobatbardoshlik va iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi. Ushbu ilmiy qarashlar zamonaviy sanoat korxonalari uchun innovatsion boshqaruv modellarini yaratishda asosiy ilmiy-amaliy baza hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda to'qimachilik korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish va modernizatsiyalash jarayonlarining iqtisodiy mazmuni hamda o'zaro bog'liqligi asoslandi. To'qimachilik korxonalarida innovatsion jarayonlarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi.

Tahlil va muhokamalar.

Bugungi kunda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishini fan-texnika taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan o'z vaqtida foydalanishning har bir ayrim korxona faoliyatidagi, shuningdek iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni, mahalliy hamda xorij olimlari tomonidan ko'p marta ta'kidlangan.

Iqtisodiyotimizda tubdan amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, hamda u bilan bog'liq bo'lgan qimmatli qog'ozlar, kapital, mehnat va innovatsiyalar bozorining shakllanishi sanoat korxonalaridan nafaqat, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakl va turlarini joriy etishni, balki fan-texnika yutuqlarini tafbiq etish mexanizmini ham qayta ko'rib chiqish talab qilinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish mexanizmining shakllanishi va qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilishidan mamlakatimiz ishlab chiqarish sohasining istiqboldagi rivojlanishi, jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, oqibat natijada iqtisodiy o'zgarishlarning o'zini amalga oshirilishi bog'liqdir. Mazkur muammoning ahamiyatli ekanligi esa bugungi kunda fan-texnika taraqqiyotini hamda sanoat korxonalarini o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Ushbu muammoni tadqiq etishni «innovatsiya» tushunchasini tavsiflashdan boshlash maqsadga muvofiqdir, turli tadqiqotchilarining murakkab va ko'p qirrali bo'lgan bu tushunchaga nisbatan yondoshuvlardagi farq sababli, zamonaviy adabiyotlarda bu tushuncha turlicha talqin qilinadi.

B.Tviss bu jarayonni ilmiy va texnik bilimlar sifatida bevosita iste'molchi ehtiyojlari sohasiga yangiliklarni joriy etish sifatida ko'rib chiqadi. Bunda mahsulot faqat texnologiya tashuvchiga aylanadi va u texnologiya hamda qondiriladigan ehtiyojlarning o'zaro bog'liqligi masalasi hal qilinishi bilan qandaydir aniq shaklga kiradi[2].

YE. Dixtl i X. Xershgen ta'kidlaydilarki, «innovatsiya» deganda yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga joriy etish tushuniladi, bunda haqiqatda yangi turdag'i bo'lgan va mazkur tadbirkorning ishlab chiqarish dasturidagina yangi bo'lgan mahsulotlarni bir-biridan farqlash maqsadga muvofiqdir. Haqiqatdagi innovatsiyalar iste'molchilarining ilgari ehtiyoj bo'lmanan ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini beradi [3].

Innovatsiyalarni «yangi mahsulotlarni, xizmatlar va ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etish jarayoni» sifatida tavsiflash ham juda keng tarqalgan. Innovatsiya – bu «yangi g'oya va ixtirolarni yangi texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega bo'lgan ijtimoiy jihatdan

ahamiyatli mahsulotga yoki g'oyalarni aniq predmetlarga aylantirish jarayonidir [3].

Innovatsiyalarni tavsiflashga nisbatan bunday yondoshuvning asosiy kamchiligi shundaki, bularda innovatsiya deganda asosan, yangi mahsulot yoki texnologiyani o'zlashtirish jarayoniga, ijtimoiy-iqtisodiy sohada yuzaga keladigan o'zgarishlarni hisobga olmagan holda urg'u beriladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishning texnikaviy bazasidagi yaxshilanish ko'p jihatdan, sanoat korxonasi faoliyatini boshqarish va tashkil etishning sifati bilan belgilanganligi sababli, ularning ahamiyati doim ortib boradi.

Ishlab chiqarishdagi texnologik qarorlar, texnika va tayyor mahsulotlar modellarining doiraviy aylanishi va almashuvi innovatsion jarayonning asosiy mazmuni hisoblanadi. Ishlab chiqarish tizimlarining yashash davri ishlab chiqarish bosqichidan boshlanadi. Bu yerda ilmiy tadqiqotlar tajribaviy namunalarni tuzish va yaratish, sinovlarni o'tkazish amalga oshiriladi.

Mahsulot murakkablashganligi va modernizatsiyalashgani sari bu bosqich borgan sari kattaroq ahamiyat kasb etadi. Birinchi bosqich seriyali ishlab chiqarishga o'tish to'g'risida qaror qabul qilish bilan yakunlanadi.

Keyingi bosqich ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash va texnologiyalarni tanlashni o'z ichiga oladi. Yangi mahsulotlar va materiallarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish usulini tanlashga ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy tayyorgarligini tashkil qilish tizimi va zarur texnologik uskunalarining tarkibi katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning yagona tizimiga muvofiq mahsulotlarni ommaviy va seriyali ishlab chiqarishga texnologik tayyorlash, texnologik jarayonlarni ishlab chiqish, jihozlarni loyihalashtirish va ishlab chiqarish, mahsulotning tajribaviy namunasini ishlab chiqarish va sinovdan o'tkazish, umuman ishlab chiqarish tizimini tashkil qilish va vujudga keltirishni o'z ichiga oladi[4]. Shuni ta'kidlash lozimki, ilmiy-texnika yangiliklarini ishlab chiqarishga qo'llash innovatsion tovarlarning xususiyatidir. Innovatsiya jarayoni ancha murakkab tushuncha. U turli nuqtai nazardan va mufassal tekshirishning turli darajalaridan qarab chiqilishi mumkin. Birinchidan, unga ilmiy tadqiqot, ilmiy-texnika, yangilik yaratish va ishlab chiqarish bilan hamohang olib boriladigan faoliyat sifatida qarash mumkin. Ikkinchidan, innovatsiya jarayoniga yangi kiritilgan tartib qoidaning g'oya paydo bo'lishidan, to uni amalga oshirish va tadbiq qilishgacha bo'lgan hayot davrining vaqtincha bosqichlari sifatida qarash mumkin[5].

Umuman olganda, innovatsiya jarayoni bu hodisalar zanjiri bo'lib, ular oqibatida texnologiya va xizmatlar, yangiliklar g'oya shaklida "yetilgan" mahsulot shakliga o'tadi va xo'jalik faoliyatiga tadbiq etiladi.

Bunda innovatsiya jarayoni yangi mahsulotni, xizmatni joriy qilinishi, ya'ni bozorda birinchi marta paydo bo'lishi bilan yoki yangi texnologiyani loyiha quvvatiga yetkazilishi bilan tugallanmaydi. Ushbu jarayon joriy qilingandan so'ng ham to'xtamaydi, chunki yangilik iqtisodiyotda tarqalish darjasini oshgan sari takomillashadi, samaradorligi yanada ortadi, yangi iste'mol xususiyatlariga ega bo'la boshlaydi, bu uning uchun qo'llanishning yangi sohalarini, yangi bozorlarni, demak-ki yangi iste'molchilarni vujudga keltiradi.

To'qimachilik ishlab chiqarishini rivojlantirishda tarmoq korxonalarini mahsulotlarining tarmoqqa xos xususiyatlarini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

To'qimachilik mahsulotlarining o'ziga xos jihatlaridan biri ularning xom ashyo sarfini ko'p talab qilishidir. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxida xomashyo va

materialarga ketgan harajatlar 70-80% ni tashkil etadi. Shu boisdan ham, to'qimachilik sanoatini rivojlantirishda tarmoq korxonalariga xomashyo sarfini qisqartirishga imkon beradigan innovatsiyalarni keng tadbiq etish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirishga, shu tariqa mahsulotning raqobatbardoshligini ham oshirishga erishish mumkin. Bu esa, bugungi kunda to'qimachilik korxonalari oldida turgan ustuvor vazifalardan biri mahsulot tannarxini 10-15%ga pasaytirishni ta'minlashning muhim yo'naliшlaridan hisoblanadi[6].

To'qimachilik korxonalarida tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda innovatsion jarayonlarni oqilona boshqarish, xom ashyodan samarali foydalanish korxonada qo'shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini jalb etmasdan turib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, sifatni yaxshilash va mehnat unumdarligini oshirish imkonini beradi. Shu boisdan ham, to'qimachilik sanoati korxonalarida «yengil» to'qimachilik matolarini, ya'ni mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xomashyo sarfini qisqartirishga imkon beradigan yangi texnologiyalarni, to'qima turlarini joriy etish korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini, shuningdek iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlash omillaridandir.

Mazkur muammolarni hal etish maqsadida olimlar to'qimachilik korxonalarining xodimlari bilan birgalikda xomashyo sarfini qisqartirishga imkon beradigan yangi to'qimachilik mahsulotlarining assortimentlarini, shuningdek xomashyoga ishlov berishning yangi texnologik jarayonlarini, mehnat unumdarligini oshirishning, oliv sifatdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini oshirish, xomashyo va materiallarni maksimal darajada iqtisod qilish va mahsulot tannarxini pasaytirishning imkoniyatlarini tadqiq etish va ularga erishishning yangi yo'llarini izlab topish ustida, innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirish borasida ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Materiallar sarfini qisqartirishga imkon beradigan yangi sifatli to'qimachilik matolarini yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar respublikamiz to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik matolarining tarkibi, ularni turli tipdagi trikojaj mashinalarida ishlab chiqarish texnologiyasining bugungi kundagi holati to'g'risidagi tahlil natijalariga asoslanishi kerak[7].

To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tarmoqqa xos jihatlaridan yana biri ularining moda yo'naliшlariga, zamon talablariga, aholining milliy urf-odatlari va an'analariga mos kelishi kerakligi, shuningdek mavsumbopligi hisoblanadi. Shu boisdan ham to'qimachilik sanoatini rivojlantirish yo'naliшlari ilgari talab bo'lмагan yangi xossa va xususiyatlarni berish orqali mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga yo'naltirilgandir.

Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning to'qimachilik sanoati korxonalariga ISO 9000 seriyasidagi xalqaro standartlarga asoslangan sifat menejmenti tizimini joriy etish kerakligi to'g'risidagi tarmoqni rivojlantirishning ustuvor yo'naliшlariga qaratilganligini ta'kidlashimiz mumkin.

Innovatsiyalarni tadbiq etish orqali korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini oshirish mahsulotning raqobatbardoshligini oshiradi, shuningdek korxonaning ham raqobatbardoshligini ta'minlash imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda respublikamiz to'qimachilik korxonalari oldida turgan eng asosiy vazifa sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarib,

xalqimizning keng iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirishdir. Korxonaga innovatsiyalarni, innovatsion-investitsiyalarni joriy etish orqali ularning tannarxini pasaytirish va sifatini yaxshilash bugungi kunda respublikamiz to'qimachilik sanoati korxonalari oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda asosiy omillardan hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

"Innovatsiyalarni boshqarish" va "innovatsion boshqarish" tushunchalarining o'zaro farqlanishiga aniqlik kiritish muhim uslubiy ahamiyat kasb etadi. Chunki, ko'p hollarda bu ikkala tushunchani ayniylashtirilib, ma'lum xatolikka yo'l qo'yiladi.

Innovatsiyalarni boshqarish - innovatsion jarayon yoki faoliyatga nisbatan boshqaruvning asosiy funksiyalari - tashkil etish, meyorlashtirish, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va tartibga solish taomillarini tatbiq etish hisoblanadi. Innovatsion boshqarish esa - boshqaruvning mazmun va sifat jihatidan ma'lum bir darajasini hamda boshqaruv faoliyatining o'ziga xos tavsifini anglatadi.

Innovatsion jarayonlarning iqtisodiy samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanadi:

- yangilikni litsenziyalashdan kelgan foyda;
- yangilikni ishlab chiqarishga joriy etishdan olingan foyda;
- mahsulot ishlab chiqarish hajmining ortishi;
- mahsulotni sotish hajmining o'sishi;
- ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasining ortishi;
- ishlab chiqarishga kiritilgan investitsiyalarni qoplash muddatining qisqarishi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Taraqqiyot strategiyasi - 2030"
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2019 yil 16 sentabridagi PQ-4453-sonli "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. Tviss B. Upravleniye nauchno-texnicheskimi novovvedeniyami: Sokr. per. s angl. / K.F. PuzinY. – M.: Ekonomika, 2001.
4. Dixtl V., Xershgen X. Prakticheskiy marketing: Ucheb. posobiye: Per. s nem. I.S. Minko. – M.: Vissしゃ shkola, 2001.
5. Yusupov U.SH. Innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy jihatlari. «Birja Ekspert» jurnali. 2012 yil, №4.
6. Yusupov U.SH. To'qimachilik sanoatida innovatsion jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish. «Iqtisodiyot va ta'lim» jurnali. 2012yil, №4.
7. Yusupov U.SH. Rol vnedreniya upravlencheskix novovvedeniy v povishenii konkurentosposobnosti predpriyatiy i effektivnosti ekonomiki strani v selom. Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiY. Filial MGU im.M.V. Lomonosova v g.Tashkente. Dekabr 2014g.
8. Yusupov U.SH. Strategic Management Of Innovative Processes At Light Industry Enterprises In The Conditions Of Digitalization Of The Economy. International Journal of Scientific & Engineering Research Volume 11, Issue 2, February-2020 1250//ISSN 2229-5518.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

